

**KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDA UNUMLI BANDLIKNING ROLI:
METODOLOGIK YONDASHUV VA EMPIRIK TAHLIL****Raxmatullayeva Shaxnoza Xamidovna***Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**Mehnat iqtisodiyoti kafedrasida dotsenti**(0000-0003-1708-7352)***Annotatsiya**

Ushbu maqolada aholining unumli bandligini oshirish orqali kambag‘allik darajasini baholashning nazariy va amaliy asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida bandlik, mehnat unumdorligi, daromadlar va norasmiy sektor ulushi kabi omillarning kambag‘allikka ta'siri tahlil qilingan. Muallif tomonidan kambag‘allik darajasini baholash uchun integral indeks shakllantirilib, u orqali iqtisodiy jarayonlarni kompleks baholash imkoniyati yaratilgan. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, unumli bandlikni ta'minlash kambag‘allikni qisqartirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические и практические основы оценки уровня бедности путем повышения производительности труда населения. В исследовании анализируется влияние таких факторов, как занятость, производительность труда, доход и доля неформального сектора, на уровень бедности. Автор разработал интегральный индекс для оценки уровня бедности, позволяющий проводить комплексную оценку экономических процессов. Полученные результаты показывают, что обеспечение производительности труда является решающим фактором в снижении уровня бедности. Также на основе результатов исследования разработаны практические предложения и рекомендации.

Annotation

This article discusses the theoretical and practical foundations for assessing poverty levels by increasing labor productivity. The study analyzes the impact of factors such as employment, labor productivity, income, and the share of the informal sector on poverty levels. The author has developed an integrated index for assessing poverty levels, which allows for a comprehensive evaluation of economic processes. The results show that improving labor productivity is crucial for reducing poverty levels. The study also provides practical suggestions and recommendations based on the findings.

Kalit so‘zlari: *Kambag‘allikni qisqartirish, unumli bandlik, norasmiy bandlik, aholining bandligi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik.*

Ключевые слова: *Сокращение бедности, производительная занятость, неформальная занятость, занятость населения, малый бизнес и частное предпринимательство.*

Keywords: *Poverty reduction, productive employment, informal employment, population employment, small business, and private entrepreneurship.*

Kirish

Hozirgi global iqtisodiy sharoitda kambag‘allikni qisqartirish dunyo davlatlari oldida turgan eng dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. Kambag‘allik nafaqat aholi turmush darajasiga, balki mamlakat iqtisodiy o‘sishi, ijtimoiy barqarorlik va inson kapitali rivojlanishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda kambag‘allikni kamaytirishda yangi yondashuv sifatida unumli bandlik kontsepsiyasi ilgari surilmoqda. Ushbu kontsepsiyaga ko‘ra, aholini faqat ish bilan ta’minlash yetarli emas, balki ularning yuqori daromad keltiruvchi va barqaror ish faoliyati bilan shug‘ullanishini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston sharoitida ham mehnat bozorini rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirish orqali kambag‘allikni qisqartirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Biroq mavjud yondashuvlarda bandlik va kambag‘allik o‘rtasidagi bog‘liqlikni kompleks baholash metodologiyasi yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Tadqiqotning maqsadi – aholining unumli bandligini oshirish asosida kambag‘allik darajasini baholashning ilmiy asoslangan metodologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

- bandlik va kambag‘allik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni nazariy jihatdan tahlil qilish;
- kambag‘allikni baholashning asosiy indikatorlar tizimini shakllantirish;
- integral baholash modeli ishlab chiqish;
- amaliy hisob-kitoblar asosida xulosalar chiqarish.

Adabiyotlar tahlili

Kambag‘allikni qisqartirish va aholining unumli bandligini ta’minlash masalalari zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda keng o‘rganilgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu sohadagi ilmiy qarashlar evolyutsiyasi kambag‘allikni tushunish va uni bartaraf etish mexanizmlarini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Kambag‘allikni tahlil qilishda fundamental yondashuvlardan biri Amartya Sen tomonidan ishlab chiqilgan “imkoniyatlar kontseptsiyasi” hisoblanadi (Sen, 1999)⁷⁴. Unga ko‘ra, kambag‘allik faqat daromadlar pastligi bilan emas, balki insonlarning iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarining cheklanganligi bilan ham belgilanadi. Ushbu yondashuv kambag‘allikni ko‘p o‘lchovli kategoriya sifatida baholash zarurligini asoslaydi.

Shu bilan birga, mehnat bozori va daromadlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntirishda Gary Becker tomonidan ilgari surilgan inson kapitali nazariyasi muhim ahamiyat kasb etadi (Becker, 1964)⁷⁵. Unga ko‘ra, ta‘lim va kasbiy malakaga investitsiya kiritish mehnat unumdorligini oshiradi, bu esa o‘z navbatida aholi daromadlarining o‘sishi va kambag‘allikning qisqarishiga olib keladi.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham mazkur masalaga alohida e‘tibor qaratilgan. Xususan, World Bank tadqiqotlarida iqtisodiy o‘shish va bandlik o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinib, “inklyuziv o‘shish” kontseptsiyasi doirasida unumli bandlikni ta‘minlash kambag‘allikni kamaytirishning asosiy omili sifatida ko‘rsatiladi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, iqtisodiy o‘shish barcha aholi qatlamlari uchun daromad manbai yarata olsagina samarali hisoblanadi.

Shuningdek, International Labour Organization tomonidan ishlab chiqilgan “munosib mehnat” (decent work) kontseptsiyasi mehnat bozorida sifatli ish o‘rinlarini yaratish, mehnat sharoitlarini yaxshilash va ijtimoiy himoyani kuchaytirish orqali kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan. Ushbu kontseptsiya doirasida faqat ish bilan ta‘minlash emas, balki ishning sifati ham muhim ekanligi ta‘kidlanadi.

Kambag‘allikni kompleks baholashda UNDP tomonidan ishlab chiqilgan Inson rivojlanishi indeksi (HDI) va ko‘p o‘lchovli kambag‘allik indeksi (MPI) keng qo‘llaniladi. Bu indekslar daromad bilan bir qatorda ta‘lim, sog‘liqni saqlash va yashash sharoitlarini ham hisobga oladi.

So‘nggi tadqiqotlarda norasmiy bandlik va kambag‘allik o‘rtasidagi bog‘liqlik ham keng o‘rganilmoqda. World Bank va International Labour Organization ma‘lumotlariga ko‘ra, norasmiy sektorda ishlovchi aholi qatlami ko‘proq kambag‘allik xavfiga duch keladi, chunki ular barqaror daromad va ijtimoiy himoyadan mahrum bo‘ladi.

Mazkur yo‘nalishdagi davlat siyosatining dolzarbligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi “Kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida”gi PF-143-sonli Farmonida alohida qayd etilgan. Unda quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilanadi: aholining yuqori daromadli barqaror ish o‘rinlari bilan ta‘minlanishi; yoshlar

⁷⁴ Sen A. *Development as Freedom*. New York: Alfred Knopf; 1999.

⁷⁵ Becker, G. S. (1964). *Human Capital*. University of Chicago Press

uchun innovatsion va raqamli texnologiyalarga asoslangan ta'lim va kasb-hunar o'rganish imkoniyatlarini kengaytirish; tibbiy va ijtimoiy xizmatlar bilan to'liq qamrovni ta'minlash; shuningdek, mahalliy infratuzilmani rivojlantirish. Ushbu maqsadlarda 2025-yilda kamida 1 million fuqaroni kambag'allikdan chiqarish vazifasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bu esa bevosita iqtisodiy o'sishning inklyuziv xarakterga ega bo'lishi, ya'ni barcha ijtimoiy qatlamlar manfaatini qamrab olishi zarurligini ko'rsatadi. Shunday qilib, kambag'allikni tizimli tarzda qisqartirish bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi.

Milliy darajadagi tadqiqotlarda ham mazkur muammo dolzarb hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari mamlakatda bandlik va daromadlar o'sishi kambag'allik darajasining pasayishi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Biroq ayrim tadqiqotlarda norasmiy sektor ulushining yuqoriligi va hududiy nomutanosibliklar saqlanib qolayotgani qayd etilgan.

Shu tariqa, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kambag'allikni samarali qisqartirish uchun faqat iqtisodiy o'sish emas, balki aholining unumli bandligini ta'minlash, inson kapitaliga investitsiya kiritish va mehnat bozorini institutsional jihatdan takomillashtirish zarur. Biroq ushbu omillarni kompleks baholashga qaratilgan yagona metodologiya yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur tadqiqot ana shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda kambag'allik darajasini baholashda kompleks va tizimli yondashuv qo'llanildi. Metodologiya aholining bandligi, daromadlari, mehnat unumdorligi hamda norasmiy sektor ulushi kabi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy omillarni o'zaro bog'liq holda tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, bir nechta o'zaro bog'liq bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy tahlilning bir qator usullaridan foydalanildi. Jumladan, statistik tahlil usuli orqali aholi bandligi va daromadlarining vaqt davomidagi dinamikasi o'rganildi. Solishtirma tahlil yordamida turli yillar va hududlar kesimidagi farqlar aniqlandi hamda ularning kambag'allik darajasiga ta'siri baholandi. Ekonometrik modellashtirish usuli orqali asosiy omillarning kambag'allikka ta'sir darajasi aniqlanib, ular o'rtasidagi funktsional bog'liqliklar shakllantirildi. Shu bilan birga, indeks usulidan foydalanib, turli ko'rsatkichlarni umumlashtiruvchi yagona integral baholash indeksi ishlab chiqildi.

Kambag'allik darajasini baholashda indikatorlar tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotda asosiy indikatorlar sifatida bandlik darajasi, o'rtacha daromad, mehnat unumdorligi, norasmiy bandlik ulushi va minimal iste'mol savati tanlab olindi. Bandlik darajasi iqtisodiy faol aholining ish bilan ta'minlangan qismini ifodalasa, o'rtacha daromad aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iqtisodiy resurslarni aks ettiradi. Mehnat unumdorligi

ishlab chiqarish samaradorligini belgilovchi muhim omil bo‘lib, aholining real daromadlarini oshirishga xizmat qiladi. Norasmiy bandlik ulushi esa rasmiy sektordan tashqaridagi mehnat faoliyatini ifodalab, kambag‘allik xavfini oshiruvchi omil sifatida qaraladi. Minimal iste‘mol savati esa aholining asosiy ehtiyojlarini qondirish darajasini baholash imkonini beradi.

Mazkur ko‘rsatkichlarni kompleks baholash maqsadida integral indeks modeli taklif etildi. Unga ko‘ra, integral baholash modeli Kambag‘allik darajasini kompleks baholash uchun quyidagi formula taklif etildi:

$$KDI = \alpha B + \beta D + \gamma U - \delta N$$

Bu yerda:

B – bandlik darajasi

D – daromad

U – mehnat unumdorligi

N – norasmiy bandlik

$\alpha, \beta, \gamma, \delta$ – vazn koeffitsiyentlari

Ushbu model kambag‘allikka ta‘sir etuvchi asosiy omillarni yagona indeksga birlashtirish orqali ularning umumiy ta‘sirini kompleks baholash imkonini beradi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodologik yondashuvga ko‘ra, bandlik va mehnat unumdorligining oshishi aholi daromadlarining o‘shishiga olib keladi va natijada kambag‘allik darajasi pasayadi. Aksincha, norasmiy bandlikning yuqori bo‘lishi daromadlar barqarorligini pasaytirib, kambag‘allik darajasining saqlanib qolishiga sabab bo‘ladi. Shu tariqa, taklif etilgan metodologiya kambag‘allikni baholashda omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni hisobga olgan holda kompleks yondashuvni ta‘minlaydi.

Natijalar

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, aholining unumli bandligini oshirish kambag‘allik darajasini pasaytirishda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Tahlillar davomida so‘nggi yillarda iqtisodiy ko‘rsatkichlarda ijobiy dinamika kuzatilgani aniqlandi.

Xususan, bandlik darajasining izchil o‘shishi aholi daromadlarining oshishiga olib kelgan bo‘lsa, o‘z navbatida bu holat kambag‘allik darajasining pasayishi bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lgan. Ushbu tendentsiyalar bandlik va kambag‘allik o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjudligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Ekonometrik tahlil natijalari ham mazkur xulosalarni qo‘llab-quvvatlaydi. Hisob-kitoblar asosida kambag‘allik darajasining asosiy omillar bilan bog‘liqligi quyidagi funktsiya orqali ifodalandi:

Hisob-kitoblar natijasida quyidagi bog‘liqlik aniqlandi:

$$K = 25.3 - 0.45B - 0.62D - 0.31U + 0.28N$$

Ushbu model natijalariga ko'ra, daromad kambag'allikka eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi, ya'ni daromadning oshishi kambag'allik darajasining sezilarli kamayishiga olib keladi. Shu bilan birga, bandlik va mehnat unumdorligi ham kambag'allikni qisqartirishda muhim rol o'ynaydi. Aksincha, norasmiy bandlik ulushining yuqori bo'lishi kambag'allik darajasining oshishiga xizmat qiluvchi salbiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Olingan natijalarning dinamik tahlili ham ushbu bog'liqliklarni tasdiqlaydi. Ya'ni vaqt o'tishi bilan bandlik darajasi o'sib borgan sari kambag'allik darajasi izchil ravishda pasayib borgan. Bu esa iqtisodiy o'sish jarayonida mehnat bozorining rivojlanishi va aholi daromadlarining oshishi kambag'allikni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari aholining unumli bandligini ta'minlash orqali barqaror daromad manbalarini shakllantirish kambag'allikni qisqartirishning eng samarali mexanizmlaridan biri ekanligini isbotlaydi.

Xulosa va takliflar

Olib borilgan tadqiqot natijalari aholining unumli bandligi va kambag'allik darajasi o'rtasida mustahkam va ko'p qirrali bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Ushbu bog'liqlikni chuqur tahlil qilish natijasida bir qator muhim ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Birinchidan, kambag'allikni kamaytirishda faqatgina ish o'rinlari yaratishning o'zi yetarli emasligi aniqlandi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, past daromadli yoki samaradorligi past bo'lgan ish o'rinlari aholining turmush darajasini sezilarli oshirishga xizmat qilmaydi. Shu sababli asosiy e'tibor aholini unumli bandlikka jalb qilishga, ya'ni yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan va barqaror daromad manbaiga ega bo'lgan ish faoliyatini kengaytirishga qaratilmog'i lozim. Bu esa iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiya qilish, innovatsion ishlab chiqarishlarni rivojlantirish va mehnat resurslarining samarali taqsimlanishini ta'minlash bilan uzviy bog'liqdir.

Ikkinchidan, tadqiqot natijalari daromadlar darajasi kambag'allikni belgilab beruvchi eng muhim omillardan biri ekanligini tasdiqladi. Aholi daromadlarining o'sishi nafaqat iste'mol imkoniyatlarini kengaytiradi, balki inson kapitaliga investitsiya kiritish (ta'lim, sog'liqni saqlash) imkoniyatlarini ham oshiradi. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy siyosatda ish haqini bosqichma-bosqich oshirish, yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, yangi qiymat zanjirlarini shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, norasmiy bandlikning yuqori ulushi kambag'allik darajasining saqlanib qolishiga sabab bo'luvchi muhim salbiy omil sifatida namoyon bo'ldi. Norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi aholi qatlami, odatda, ijtimoiy himoya tizimidan to'liq foydalana olmaydi,

ularning daromadlari barqaror emas va iqtisodiy xavflarga nisbatan zaif hisoblanadi. Bu esa kambag‘allik xavfini oshiradi. Shuning uchun norasmiy bandlikni qisqartirish, uni legal iqtisodiyotga integratsiya qilish hamda mehnat munosabatlarini institutsional jihatdan tartibga solish muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari ta‘lim va malaka darajasi ham unumli bandlikni ta‘minlashda hal qiluvchi omil ekanligini ko‘rsatdi. Yuqori malakali ishchi kuchi mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lib, yuqori daromadli ish o‘rinlarini egallash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida kambag‘allik darajasini pasaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi kontseptual zanjir taklif etildi:

Ta‘lim → **Malaka** → **Unumli bandlik** → **Daromad** ↑ → **Kambag‘allik** ↓

Ushbu model aholining bilim va ko‘nikmalari orqali mehnat bozorida samarali ishtirok etishi, natijada esa barqaror daromad manbai shakllanishi va kambag‘allik darajasining pasayishini ifodalaydi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari aholining unumli bandligini oshirish kambag‘allikni kamaytirishning eng muhim omillaridan biri ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Xususan, tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan integral baholash metodologiyasi kambag‘allikka ta‘sir etuvchi omillarni kompleks ravishda tahlil qilish imkonini yaratdi.

Shu bilan birga, iqtisodiy tahlillar natijasida bandlik, daromad va mehnat unumdorligi kambag‘allikni kamaytirishda ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi, norasmiy bandlik esa aksincha salbiy omil sifatida namoyon bo‘lishi aniqlandi. Bu esa iqtisodiy siyosatni takomillashtirish va maqsadli dasturlar ishlab chiqish uchun muhim amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari mamlakatda barqaror iqtisodiy o‘rinishni ta‘minlash va aholi farovonligini oshirishda unumli bandlikni rivojlantirish ustuvor yo‘nalish bo‘lishi lozimligini ko‘rsatadi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchidan, mehnat bozorini modernizatsiya qilish orqali zamonaviy va yuqori samarador ish o‘rinlarini yaratish zarur. Bu jarayon raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi kerak.

Ikkinchidan, kasb-hunar ta‘limi tizimini takomillashtirish va uni mehnat bozori talablariga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu aholining malaka darajasini oshirish va ularning raqobatbardoshligini ta‘minlaydi.

Uchinchidan, norasmiy sektorni qisqartirish maqsadida mehnat munosabatlarini legallashtirish, soliq va ma‘muriy mexanizmlarni soddalashtirish hamda tadbirkorlik faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish lozim.

To‘rtinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash orqali yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Beshinchidan, hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda bandlik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish orqali kambag‘allik darajasini qisqartirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Becker, G. S. (1964). Human Capital. University of Chicago Press.
2. International Labour Organization (ILO). (2022). World Employment and Social Outlook.
3. Sen, A. (1999). Development as Freedom. Oxford University Press.
4. United Nations Development Programme (UNDP). (2023). Human Development Report.
5. World Bank. (2023). World Development Report.
6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. (2024). Расмий статистика.